



# Korxonalar va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2018 yil 1 iyun holatiga

## RAQAMLAR:

- Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni **616 taga o'sdi**
- Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining ulushi **2,3 f.p ko'paydi**
- Tugatilgan korxonalariga nisbatan yangi tashkil etilgan korxonalar soni **491 taga oshgan.**

2018 yilning yanvar-may oyida Viloyatda 680 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 61 taga kamaygan.


Shuningdek faoliyati tugatilgan korxonalar va tashkilotlarning soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan 50,7 % kamaygan hamda ularning soni 194 tani tashkil etganligini kuzatish mumkin.

Buning natijasida joriy yilning boshiga nisbatan faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 481 ta (4,9 %) ga o'sgan hamda ularning umumiy soni 9873 tani tashkil etgan.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning asosiy ulushi Guliston shahrida (32,1 %), Sirdaryo (15,3%), Sayxunobod (8,5 %) va Yangiyer (7,5 %) tuman shaharlarida kuzatilmoqda.

## Hududlar kesimida faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari), birlikda





## Ro'yxatga o'tgan va faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari,  
2018 yilning 1 iyun holatiga)

	Ro'yxatdan o'tgan		Faoliyat ko'rsatayotgan	
	birlikda	jamiga nisbatan %	birlikda	jamiga nisbatan %
<b>Sirdaryo viloyati</b>	<b>10599</b>	<b>100,0</b>	<b>9873</b>	<b>100,0</b>
Guliston shaxri	3372	31,8	3169	32,1
Sirdaryo tumani	1662	15,7	1510	15,3
Sayhunobod tumani	861	8,1	845	8,6
Yangiyer shaxri	810	7,6	744	7,5
Guliston tumani	804	7,6	731	7,4
Mirzaobod tumani	762	7,2	719	7,3
Boyout tumani	807	7,6	733	7,4
Xovos tumani	513	4,8	470	4,8
Oqoltin tumani	396	3,7	372	3,8
Sardoba tumani	372	3,5	354	3,6
Shirin shaxri	240	2,3	226	2,3

### Korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida faoliyat ko'rsatayotganlar va faoliyatsizlarning ulushi, % da




Korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida faoliyat ko'rsatayotganlarning ulushi 93,2 % ni, shu bilan birga jami korxonalar va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan faoliyat ko'rsatmayotganlarning ulushi 6,8 % ni tashkil etganligini ko'rsatmoqda va bu ko'rsatkich esa yil boshiga nisbatan taqqoslanganda 0,2 f.p. ko'paygan.


■ faoliyat ko'rsatayotganlar    
 ■ faoliyatsizlar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan 26,4 % savdoda, 11,6 % sanoatda, 9,0 % qurilishda, 12,0 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida, 5,6 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda, 5,5 % tashish va saqlash, 1,6 % axborot va aloqa, 1,3 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish va 27,0 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

**Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari) % da**




**Ro'yxatdan o'tgan va faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning o'sish dinamikasi (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari), birlikda**




2018 yil yanvar-may holatiga 680 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etilgan. Bu esa 2017 yilning shu davriga nisbatan qaraganda 8,2 % ga kamaygan. Eng ko'p yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar Guliston shaxrida (177 ta), Sirdaryo (99 ta), Sayhunobod (71 ta) va Yangiyer shaxrida (64 ta) tashkil etilgan. Eng kam Shirin shaxrida (15 ta), Mirzaobod va Sardoba (35 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

### Hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning soni, birlikda



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'pi savdoda (170 ta), sanoatda (102 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (125 ta) va qurilishda (96 ta) tashkil etilgan. Eng kam esa axborot va aloqada (8 ta), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (7 ta) va tashish va saqlashda (18 ta) tashkil etilgan.

### Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimidagi soni, birlikda



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'tgan yilning shu davriga nisbatan faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining ulushi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda (-1,3 f.p), axborot va aloqada (-0,1 f.p.dan), tashish va saqlashda (-0,1 f.p.), boshqa faoliyat turlarida (-0,3 f.p) kamayganligi, buning natijasida, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (+0,3 f.p.), qurulishda (+1,0 f.p.), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda (+0,5 f.p.), ulushining o'sishiga olib keldi.


**Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'tgan yilning shu davriga nisbatan ulushi, foiz punktda**

<b>Iqtisodiy faoliyat turlari nomi</b>	<b>01.06.2018 y.</b>	<b>01.06.2017 y.</b>	<b>farqi (+-)</b>
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	1,3	2,6	-1,3
Savdo	26,4	26,4	
Axborot va aloqa	1,6	1,7	-0,1
Sanoat	11,6	11,6	
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	12,0	11,7	0,3
Qurilish	9,0	8,0	1,0
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	5,6	5,0	0,5
Tashish va saqlash	5,5	5,7	-0,1
Boshqa turlari	27,0	27,2	-0,3

**Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo'yicha faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarining umumiy soni (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari).**

2018 yil 1 iyun holatiga 7936 ta tijorat shaklidagi korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, shundan xususiy korxonalar – 2801 ta, oilaviy korxonalar – 73 ta, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar – 4752 ta, aktsiyadorlik jamiyatlari – 20 tani va boshqalar 290 tani tashkil etadi.


## Faoliyat ko'rsatayotgan yuridik shaxslar-xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning tashkiliy huquqiy shakllari bo'yicha taqsimlanishi, birlikda



## Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni


2018 yil 1 iyun holatiga faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 92 tani tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 23 taga yoki 25,0 % ga o'sgan. Shuningdek Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalaridan 67 tasi qo'shma korxonalar, 25 tasi esa xorijiy korxonalar hisoblanadi.

## Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tarkibida qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalarning soni, birlikda






## Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda




Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining asosiy qismi Sirdaryo tumani 40 ta (43,5 %i), Guliston shaxri 21 ta (22,8 %), Yangiyer shaxri 10 ta (10,9 %) hissalariga to'g'ri keladi. Eng kam xorijiy kapital ishtirokida tashkil etilgan korxonalar Xovost tumani 1 ta (1,1 %), Sardoba tumani 1 ta (1,1 %), Guliston tumani 1 ta (1,1 %) hissalariga to'g'ri keladi. Bu esa mazkur hududlarda xorijiy hamkorlar bilan ishlashni, investitsiyalar jalb etish borasida amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlarni yanada rivojlantirishni talab etadi.

## Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining hududlar kesimidagi soni, birlikda



Agar faoliyat yuritayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ushbu ma'lumotlarni 2018 yil 1 iyun holatiga ko'rsak eng ko'p sanoatda 63 ta (68,5 %), savdoda 11 ta (12,0 %), qurilishda 5 ta (5,4 %) tashkil qilgan, eng kamlari esa qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida esa 4 ta (4,3 %), tashish va saqlashda 4 ta (4,3 %), boshqa tarmoqlar 4 ta (4,3 %), tashkil qilgan. Shundan ko'rinib turibdiki faoliyat yuritadigan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turiga to'g'ri kelarkan. Shuningdek tashkil etilmaganlar, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda axborot va aloqa faoliyat turlariga to'g'ri keladi.

### Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



2018 yilning yanvar-may oyida xorijiy kapital ishtirokidagi ro'yxatdan o'tgan yangi korxonalarining soni 6 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 3 taga kamaygan.


Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, asosan sanoatda 5 ta, korxonalar yangi tashkil etilgan.



## Kichik korxonalar va mikrofirmalar soni


2018 yil 1 iyun holatiga Viloyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning soni 7892 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich 2017 yil 1 may holatiga qaraganda 8,7 % ga oshgan. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi yani 2710 tasi (34,3 %) Guliston shahriga, 1262 tasi (16,0 %) Sirdaryo, 680 tasi (8,6 %) Sayxunobod tumanlari his-salariga to'g'ri keladi.

### Kichik korxonalar va mikrofirmalar soni dinamikasi, birlikda




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan jami 7892 ta kichik korxonalar va mikrofirmalarning 2601 tasi (32,9 %) – savdoda, 1129 tasi (14,3 %) - sanoatda, 879 tasi (11,1 %) - qurilishda, 1163 tasi (14,7 %) - qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida, 546 tasi (6,9 %) - yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida, 543 tasi (6,9 %) - tashish va saqlashda, 153 tasi (1,9 %) - axborot va aloqa sohasida, 80 tasi (1,1 %) - sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda, shuningdek 798 tasi (10,2 %) - boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi. Shundan ko'rinib turibdiki, faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turlariga to'g'ri keladi. Shuningdek, eng kam ulushi esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda axborot va aloqa faoliyat turlariga to'g'ri keladi.

## Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



2018 yil yanvar-may holatiga 619 ta yaqin kichik korxonalar va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa 2017 yilning shu davriga nisbatan qaraganda 13,2 foizga kamaygan. Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar Guliston shahrida (147 ta), Sirdaryo (88 ta), Sayxunobod (71 ta) va Guliston tumanlarida (49 ta) tashkil etilgan. Eng kam Shirin shahrida (15 ta), Sardoba (30 ta) tumanida tashkil etilgan.


Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'pi savdoda (170 ta), sanoatda (102 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (125 ta) va qurilishda (96 ta) tashkil etilgan. Eng kam esa axborot va aloqada (8 ta), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (7 ta) hamda tashish va saqlashda (18 ta) tashkil etilgan.



## Oilaviy korxonalar soni


Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tgan oilaviy korxonalar soni - 2018 yilning 1 iyun holatiga 80 tani tashkil etib, ulardan 73 tasi yoki 91,2 % faoliyat yuritadi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda davlat ro'yhatidan o'tganlarning hamda faoliyat ko'rsatayotganlarning umumiy soni o'rtacha 20,5 %ga oshganligini ta'kidlash lozim.

### Oilaviy korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda



Faoliyat ko`rsatayotgan oilaviy korxonalarining Iqtisodiy faoliyat turlari ke- simida qaralganda oilaviy korxonalarining 45,2 % yoki 33 tasi sanoat, 19,2 % yoki 14 tasi savdo, 16,4 % yoki 12 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 10,9 % yoki 8 tasi qishloq, o`rmon va baliq xo`jaligi, 1,4 % yoki 1 tasi axborot va aloqa hamda 6,9 % yoki 5 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to`g`ri kelmoqda.

**Faoliyat ko`rsatayotgan oilaviy korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da**



Viloyat statistika boshqarmasi  
Statistik registrlarni yuritish bo'limi  
boshlig'i

Nashr uchun mas'ul: **K.Yusupov**  
(0367) 225-31-00

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat  
registri (KTYDR) ma'lumotlari asosida  
tayyorlangan